



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRLIGINING BUYRUG‘I

14-dekabr 2024-yil.

23-231-son

O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni tatbiq etiladigan O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimidagi tashkilot va muassasalar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman**:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq:

ushbu Qonunning amal qilishi davlat organlariga va mahalliy davlat hokimiyati organlariga, davlat muassasalariga, davlat unitar korxonalariga, davlat maqsadli jamg‘armalariga, shuningdek ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz miqdorda va undan ortiq bo‘lgan aksiyadorlik nisbatan;

o‘z ustav fondida (ustav kapitalida) davlat organlarining yoki boshqa tashkilotlarning ulushi jami 50 foiz miqdorda va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslarga nisbatan;

o‘z ustav fondida (ustav kapitalida) ushbu modda uchinchi qismining ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan tashkilotlarning ulushi jami 50 foiz miqdorda va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslarga nisbatan faqat ularning davlat xaridlari sohasidagi munosabatlariga tatbiq etilishi belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni tatbiq etiladigan O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimidagi **tashkilot va muassasalar ro‘yxati** (keyingi o‘rinlarda — Ro‘yxat) ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ro‘yxatda keltirilgan tashkilot va muassasalarning birinchi rahbarlari o‘zlari rahbarlik qilayotgan tashkilot va muassasalarda manfaatlar to‘qnashuviga olib kelishi mumkin bo‘lgan holatlarni barvaqt aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha qat’iy choralar ko‘rib borsin.

4. Ro'yxatda keltirilgan tashkilot va muassasalar:

o'z ishini O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonuni talablari asosida tashkil etsinlar va xodimlar faoliyatida manfaatlar to'qnashuvi holatlarining oldini olish bo'yicha cheklovlarga rioya etilishini ta'minlasin;

aniqlangan manfaatlar to'qnashuviga olib kelishi mumkin bo'lgan holatlarni tezkor bartaraf etish choralarini ko'rib borsin.

5. Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'limi (F. Berdiyev) Ro'yxatda keltirilgan tashkilot va muassasalar tizimida Qonunda belgilangan talablar va mexanizmlarni amaliyotga joriy etish bilan bog'liq masalalarda har chorak yakuni bo'yicha Respublika idoralararo komissiyasiga axborot kiritib borilishini ta'minlasin.

6. Tashkiliy ishlar va ijro intizomi boshqarmasi (F. Xamdamov) **bir kun muddatda** mazkur buyruqning mas'ul ijrochilarga yetkazilishini ta'minlasin.

7. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilishni o'z zimnamda qoldiraman.

Vazir



D. Kuchkarov

O‘zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya vazirligining
2024-yil “___” dekabrda
_____ - son buyrug‘iga
ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni
tatbiq etiladigan O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimidagi
tashkilot va muassasalar
RO‘YXATI**

1.	“Axborot texnologiyalari markazi” DUK
2.	Byudjet-soliq ilmiy tadqiqotlari instituti
3.	Moliya organlari hamda byudjet tashkilotlari moliya-hisob bo‘linmalari xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlash o‘quv markazi
4.	Tarmoq bozorlari va ishlab chiqarishda mehnat unumdorligi tadqiqotlari markazi
5.	“Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish va qishloq joylarni barqaror rivojlantirish birlashtirilgan loyihalarni amalga oshirish guruhi” DM
6.	“Infratuzilma loyihalarini amalga oshirish direksiyasi” DM
7.	Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi
8.	“Yashil iqtisodiyot loyihalari markazi” loyiha ofisi
9.	“O‘rta shaharlarni kompleks rivojlantirish” loyihasini amalga oshirish guruhi
10.	“Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi” DUK
11.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmalari
12.	Tuman (shahar) iqtisodiyot va moliya bo‘limlari